



OILAVIY TADBIRKORLIK VA UNING RIVOJLANTIRISHNING MUHIM JIHLTLARI

Kimsanova Dilnoza Raxmonjonovna

Farg'ona viloyati, Beshariq tuman 1-son texnikumi maxsus fan o'qituvchisi

Kalit so'zlar: *Oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy sektor, oila instituti, iqtisodiy rivojlanish, tadbirkorlik faoliyati, biznes boshqaruvi, iqtisodiy barqarorlik, tadbirkorlik shakllari, moliyaviy resurslar.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oilaviy tadbirkorlikning mohiyati, uning iqtisodiyotdagi o'rni va rivojlanishining muhim jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, oilaviy biznesning tashkil etilish sabablari, uning asosiy tamoyillari hamda rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Maqolada O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar va mavjud imkoniyatlar ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, oilaviy biznesning barqaror faoliyat yuritishiga to'sqinlik qiluvchi muammolar va ularning kelib chiqish sabablari ham tahlil etilgan. Muallif tomonidan oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.*

Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatini juda xilma-xil shakllarda amalga oshiriladi. Har bir tadbirkor tomonidan faoliyat turi hamda xo'jalik yuritish shakllarini tanlasherkinligi tamoyiliga amal qilinadi.

Oilaviy tadbirkorlikning negizi bo'lgan oila institutining mavqeini mustaxkamlash – mazkur soha taraqqiyotining muhim shartidir. Oilaviy tadbirkorlik – jahonda ilgari mavjud bo'lib kelayotgan biznes institutlaridan biridir. U jahonning ko'plab rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotida belgilovchi ro'l o'ynaydi. Mazkur mamlakatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, katta biznes oilaviy korxonalaridan boshlanadi. Mustaxkam iolalarda oilaviy tadbirkorlik ko'p tarmoqli korporatsiyalarga o'sib o'tishi borasida ko'plab misollar mavjud.



Shuningdek, statistik ma'lumotlarga ko'ra, oilaviy tadbirkorlik o'zining uchinchi avlodiga kelib 90 foiz holatda tugab ketadi. Buning asosiy sabablarisifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

-muayyan vaqt davomida oila a'zolari tarkibining o'zgarishi, buning natijasida qarindoshlik aloqalarining susayib borishi;

-biznes tarkibiga qo'shiladigan yangi ishtirokchilarning ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish muammolariga nisbatan qarashlaridagi farqlarni kuchayib borishi;

-biznesning kengayishi natijasida uning ishtirokchilarining ko'payishi va buning natijasida ixtiloflarning kuchayishi va h.k.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun bir qator omillar qulay zamin yaratdi. Jumladan, bu omillardan asosiylari sifatida oilalar moddiy asoslarnining mustaxkamlanganligi; ular moliyaviy imkoniyatlarining kengayganligi; yashash sharoitlari (elektr energiya, gaz, ichimlik suvi, oqava suv tizimi bilan ta'minlanganlik darajasi)ning yaxshilanganligi; mamlakatda kichik tadbirkorlik va xususiy biznesning jadal rivojlanib borayotganligi; kichik biznes infratuzilmasining rivojlanganligini aytib o'tish mumkin.

Oilaviy tadbirkorlik- bir oila yoki oilaviy aloqalar bilan bo'g'langan kishilar guruhi tomonidan biznesni tashkil etish, uning aksiyalar nazorat paketini ushlab turish, faoliyatiga raxbarlik qilish

Hozirgi sharoitda oilaviy tadbirkorlikni tashkil etishning asosiy sabablari sifatida ko'plab jihatlarni ko'rsatish mumkin. Jumladan

-oila a'zolarining faoliyat yuritayotgan korxonadagi ish o'rinini yo'qotishi (masalan, korxonaning bankrot bo'lishi, qayta tashkil etilishi, xodimlarning rejadagi qisqartirilishi va h.k.). Natijada u o'z oila a'zolari bilan birgalikda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishga harakat qiladi.

-Oila boshlig'ining o'z ishini ochishi va unga oila a'zolarini ham jalb etishi. Bu o'rinda oila boshlig'i o'zining biznes-g'oyasi va tashabbusi asosida mustaqil



ravishda oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanishga o'tadi va oila a'zolarini ishchi sifatida yollaydi.

-Oila a'zolarining o'zaro xamkorligi va sherikligidagi shartnoma asosida tashkil etilishi. Bu o'rinda ma'lum moliyaviy va boshqa resurslarga ega bo'lgan oila a'zolari o'zaro kelishuv asosida hamkorlikdagi biznesga asos soladilar. Ularning mazkur biznesdagi ulushlari, huquq va majburiyatlari, vakolatlari shartnoma shartlari orqali belgilab beriladi. Albatta, yuqorida ko'rib chiqilgan kabi sabablar juda ko'p va turlicha bo'lishi mumkin. Ularning barchasi oilaviy tadbirkorlikning tashkil etish holati va darajasiga turlicha tasir ko'rsatadi.

Biznesni tashkil etish va yuritishning o'ziga hos shakli sifatida oilaviy tadbirkorlikning tarkib topishi va amal qilishi jarayoni ham bir qator muhim tamoillarga asoslanadi. Kuyda oilaviy tadbirkorlikning tarkib topish tamoyillarining maz,uniga to'xtalib o'tamiz.

-Tadbirkorlik faoliyatining maskur shaklida biznesning oila azolari yoki yaqin qarindoshlar tomonidan tashkil etilishi.

-oilaviy tadbirkorlikning tavakkalchilikka asoslanishi.

-oilaviy tadbirkorlikning o'z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshirilishi.

-oilaviy tadbirkorlikning daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshirilishi.

-oilaviy tadbirkorlikning tashabbuskorlikka asoslanishi.

-oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilarning ixtiyoriyligiga asoslanishi.

-oilaviy tadbirkorlikning yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirish mumkinligi.

Yuqoridagi fikir-mulohazalardan ko'rinadiki, bugungi kunda mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlik tadbirkorlik faoliyatining muhim va istiqbolli shakillaridan biri hisoblanib, uni yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora tadbirlar, yaratilayotgan imkoniyatlar pirovardida maskur soxaning iqtisodiyotdagi mavqeining mustaxkamlanishi haqida iqtisodiyotning barqaror o'sishini taminlashda sezilarli hissa qo'shishiga zamin yaratadi.



Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik shakllari tarkib topib, muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatib borar ekan, ularni maqsadga muvofiq ravishda tartibga solish hamda rivojlantirish zarurati vujudga keladi. Bunning uchun esa har bir muayyan tadbirkorlik shaklining tarkib topish taomillarini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
4. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev M. **Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari.** – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
5. Yo'ldoshev Q. **Tadbirkorlik faoliyati nazariyasi va amaliyoti.** – Toshkent, 2020.
6. Porter M. **Raqobat ustunligi** (Competitive Advantage). – Nyu-York, 1985.
7. Drucker P. **Innovatsiya va tadbirkorlik** (Innovation and Entrepreneurship). – 1985.
8. Jahon banki (World Bank) hisobotlari – kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik bo'yicha tahlillar